



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

“TONGOTAR” ROMANIDA JAMIYAT STEREOTIPLARI FONIDA AYOL IZTIROBI VA QISMATI IFODASI

Bozorova Dilovar Bahodirovna
BuxDPI, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Raxshona Axmedovaning “Tongotar” romanida ayol qismati va iztiroblarining badiiy ifodasi jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy stereotiplar kontekstida tahlil qilingan. Asarda muallif zamonaviy ayolning ruhiy holati, ijtimoiy bosimlar va o'zlikni anglash jarayonini realistik ruhda tasvirlaydi. Tadqiqot davomida ayol obrazlari orqali jamiyatning axloqiy mezonlari, erkinlik va mehr-muhabbat o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Maqolada, shuningdek, asardagi psixologik tasvir, ichki monolog, ramz va metaforalarning ayol iztiroblarini ochib berishdagi estetik funksiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: “Tongotar” romani, ayol qismati, jamiyat stereotiplari, psixologik realizm, ayol iztirobi, o'zlikni anglash, o'xshatish va metafora.

So'nggi yillarda o'zbek adabiyoti ham nasr ham nazmda pishiq va saviyali asarlar bilan boyimoqda. Bu, albatta, quvonarli hol. Muhimi, bu asarlar yangi g'oyalar olib kirishga, turli tajribalar qilishga urinadigan, dunyo adabiy oqimlarini o'rganib, o'ziga xos uslub yaratishga urinayotgan va jamiyatga ko'zgu bo'ladigan ijod namunalari yozishga ishtiyoqmand yosh, shijoatli shoir va adiblar tomonidan yozilmoqda. Bugungi kunda o'zbek adabiyotida bir qancha noyob ba takrorlanmas asarlar yaratilmoqda. Ularda mavzu va g'oyasining turlichaligi, jamiyat muammolari, ba'zi bir kamchiliklar, ko'ngil tubida usti berk qolgan tuyg'u va hissiyotlar haqida mardona yozilganligi kitobxonni o'ziga jalb etmay qolmaydi. Yaqin orada chop etilgan, kitobxonlar hukmiga havola etilgan Raxshona Ahmedovaning “Tongotar” romani ham o'zbek adabiyotiga “qismat sharobini ichib tugata olmagan ayollar” umr yo'li haqida hikoya qilgancha kirib keldi. Bu esa ayollar taqdiri hozirgi o'zbek adabiyotining umumiy mavzusiga aylanib borayotganing yana bir dalili bo'ldi. Shunday qilib, keyingi yillarda boshlangan o'zbek yozuvchilarining ayol huquqlari masalasidagi muxolifati yozuvchilarning badiiy ongida tobora ko'proq ildiz otib borayotganini ko'rsatadi.

Taniqli adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam “Tong otar” (Yoki orzu qilishni unutgan el bitigi) deya yozganlari ayni haqiqat. [4] Asar qahramonlari orzu qilmay qo'ygan ular “Orzular insonni aldaydi. Inson orzularga ishonib umrining qanday o'tganin bilmay qoladi” deb o'ylashadi.

“Tongotar” yaqin yillarimiz haqida eng dardli hikoyalardan so'zlaydi. Roman eng og'riqli nuqtamiz – ijtimoiy vaziyat va ayollarning o'rni, ularga munosabat haqida kuyinib, balki yig'lab yozilgan: *“Ayol qismati onadan qizga meros o'tadigan toshga o'xshaydi. Bo'yinga osilgan yechib bo'lmaydigan tosh”*. Asar nomlanishining o'ziyoq, kitobxonda qiziqish uyg'otadi. O'quvchi har sahifa so'ngida, har qismat hikoyasi yakunida tong otishini kutib boradi. Lekin u tong otmaydi. Asar qahramonlarini qismat yorug' tonglarga yetmasidanoq erkdan, yashashdan, orzudan ayirdi.

Romanda ona qismatini yashab o'tgan, hatto u bosib o'tgandan-da o'g'irroq hayot yo'lida xarob bo'lganicha tentiragan qiz obrazini ko'rishimiz mumkin. Uch avlod qismatining monandligi romandagi ayollarda ayni xatolarning takrorlanishi va oxiri qorong'u qismatga yetaklanishida namoyon bo'ladi. Zero Fotima, qizi Farog'at, Malohat yanga, Munira, Farida kabi obrazlar ilmsizlik bois shum taqdir azoblariga duchor bo'ladi. Muallif asar orqali jamiyatda ayollarni hurmat qilishni targ'ib qilgani kezi ayol kishiga bergan ta'riflari romanning juda ziddiyatli mazmunini ochiq-oydin yoritadi. Voqealar rivoji davomida Raxshona Ahmedova o'z qahramonlarining qora taqdirini kuchli bir jasorat va shafqatsizlik bilan hikoya qilganki, mutolaa jarayonida qahramondan taqdirini achinish va iztirob bilan o'qib boradi kishi. Balki yozuvchi koreys adabiyotidan yaxshigina xabardorligi, undan qilgan

tarjimalari asosidagi adabiy ta'sir ikki xalq adabiyoti bir qalamda tutashgandir. Bunda yozuvchining o'ziga xos uslubi borligi seziladi.

Ammo ba'zi o'rinlarda yozuvchi o'z qahramonlari bilan murosa qilolmay qoladi. Shunday obrazlardan biri Fotima: *"Hayot toshlari oyog'ingga botadigan tog' yo'li kabi g'adir-budir, bu yo'l azobini Fotimadek yaxshi biladigan bo'lmasa kerak...Bu yo'llarda necha bor oyoqyalang yurishga to'g'ri kelgan"* [1; 33] Fotima shunday bo'lsada, o'z hayotidan anglamadi va shu botqoqlik sari qizini ham yetakladi. Chunki "Xudo bu ayolga shunday bir kuch berganki, yelkasida dunyo yukini ortmoqlab olsa olgulik". Eri yo'qchilik sabab musofir yurtga ishlash uchun ketganda esa u anchagina yukni zimmasiga olgandi. Axir *"Ayoli yo'q uy ichidan, erkagi yo'q uy tashidan nuraydi"*. Fotima har ikisini ham yelkasida ko'tarib turarkan, tunlari bezovtalanar va *"tezroq tong ota qolsaydi"* deya joni halak edi. Lekin ayolning tongi yorishmadi kundan kunga qora qismat bosib kelardi. Bu ayol hayoti davomida ayoldek yashamadi, ayol ertapishar o'rikdek ilvirab qoldi, ayol xonumoni kuygan odam obrazida yashashga majbur bo'ldi, ayol qushdek besaranjom yashadi, ayolning kunlari oyog'i kuygan tovuqday o'tdi, ayol o'zi bir matohdek asli bu dunyoda. Asarda bunga o'xshash tasvirlarni ko'plab uchratish mumkin. Muallif ayol obraziga qo'llagan o'xshatishlari orqali Fotima va Farog'atning opa-singillarida (jamiyat ayollariga) bu xatolar takror bo'lmasligi ayollar fikrini, dunyoqarashini o'zgartirish, umuman xulosa chiqarishlari uchun shunday achchiq va ayanchli yozadi. Axir *"Millatning tarbiyachisi xotin-qizlardir"* degan edi Farog'atning buvisi.

Onasining cheklovi bilan o'qish, dunyo ko'rish kabi orzularidan mahrum etilgan Farog'at ham qismatning achchiq sharobini ichib tugata olmadi. Bir tomondan bularning bariga erkaklarning ham aybi bordek. Chunki asar qahramonlarining erlari risoladagidek emas edi-da. Natijada qahramon ayollarga xos dilbarlik, nafislik va nozirklik sifatlaridan tobora uzoqlashib boradi: *"Bozor ko'ngilni o'ldirar ekan. Fotimaning o'ziga sezilmagan bo'lsada, qattiq-qattiq gapira boshlagani shundan edi. Bora- bora gap-so'zlari dadillashib, muloyim, tortinchoq, yuvoshgina ayol o'rnini haqqini qo'ymaydigan, gap-so'zlari to'qmoqdek, o'tkirgina ayol egalladi."* [1; 53] Shu tariqa Fotima oilada bor ma'suliyatni bo'yniga olgandi. "Haqqini qo'ymaydigan" Fotimaning nomuini toptashdi. Shunda ham kim aybdor? Albatta, yana ayol aybdor. Taqdirning qorong'u tunlari Fotimani juda qiynab qo'ygandi. Axir *"Oilada erkak o'rnini yo'qotsa, ayol kimligini esdan chiqarib qo'yarkan"*. [1; 77] O'zini har yon urib ishlarkan oilasi uchun qushdek tinim bilmagan ayol "nomusga qolib" o'zini kechirolmay o'lmoqqa ham qaror qildi. Ammo shum taqdir ayolni shundog'am og'ir kasallik bilan qiynab, tongi otmagancha hayotdan olib ketdi.

Qismati takrorlanayotgan misli zanglagan zanjirda terilgan kalitlar kabi aks ettirilgan ayollar taqdirini o'qib borarkansiz havo yetmay qoladi, bo'g'ilasiz. Tezroq tong otishini istab qoladi kishi. Afuski, qahramonlarning deyarli hech birining hayotida kitobxon istagan va kutgan tong otmaydi: Fotima og'ir kasallik sabab yorug'lik ko'rmay dunyodan o'tadi; Farida esa o'zini o'ldirishga ham urinadi ammo so'ngida bolalari uchun taqdirga ko'nib yashaydi; Munira va Farog'at hayotida esa qisman tong shulalari ko'rinadi.

Xullas, muallif asarda ayol obrazi, ularning taqdiri va his-tuyg'ularini jamiyatdagi stereotiplar fonida mohirlik bilan ochib berar ekan, faqat va faqat jamiyatda va oilada ayol o'rnini belgilash, uning sha'nini ko'tarmoq uchun undaydi, harakat qiladi. Inchunun ayol – millat onasi, kelajak avlod tabriyachisi! Asar voqealarining bari jamiyatga to'g'ridan to'g'ri ko'zgu tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova R. Tongotar. – T.: Yangi asr avlodi, 2023.
2. Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини: Филол. фан. фалсафа. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 137 б.
3. Yakubov I. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi: filol.fan d-ri...dis. – Toshkent, 2018. – 298 b.

4. kizi Rustamova, G. B. (2025). TRANSFORMATIONAL ASPECTS INHERENT IN DENDRICAL IMAGES IN NEW UZBEK LITERATURE. Bulletin news in New Science Society, 2(6), 291-298.
5. Bakhronovna, G. R. (2023). The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(5), 237-242.
6. Rustamova, G., & Sharofova, G. (2024). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KO'Z BILAN BOG 'LIQ SOMATIK OBRAZLAR DINAMIK POETIKASI. Solution of social problems in management and economy, 3(1), 43-46.
7. Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 186-192.
8. Bakhronovna, R. G. (2024). Irony as a Type of Movement in Artistic Literature. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 231-235.
9. Saidakhmedovna, U. D., & Bakhronovna, R. G. (2022). Some Comments on the Expression of the Image of "Life Tree" In Legends and Narrations. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(6), 51-55.
10. OBRAZINING, Q. (2020). O'ZIGA XOS TALQINLARI. НамДУ илмий ахборотномаси, 1, 5-311.
11. Kizi, R. G. B., Ubaydullayevna, N. Y., & Kizi, M. M. I. (2020). The image of trees in folklore: Genesis and poetic interpretations. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 6342-6349.
12. Рустамова, Г. (2021). ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон қизи Бухоро давлат университети таянч докторанти. In Научно-практическая конференция (Vol. 1, pp. 287-291).